



“BOBURNOMA” ASARIDA BOG‘CHILIKKA OID MA’LUMOTLAR

Baxtiyorov Laziz Xolmurod o‘g‘li

“Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini
mexanizatsiyalash muhandislari instituti”

Milliy tadqiqot universiteti Gumanitar fanlar
kafedrasida tayanch doktoranti

E-mail: lbaxtiyorov@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada Hindistonda alohida davlat qurgan temuriy hukmdor Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida Samarqand, Kobul va Hindistondagi bog‘larga doir ma’lumotlar haqida fikr yuritiladi. Maqolaning ahamiyatlilik jihati hozirgi iqlimiy muammolar davrida yanada oshgan, deb aytilishimiz mumkin. Boshqa temuriy hukmdorlar kabi Zahiriddin Muhammad Bobur ham bog‘dorchilik va obodonchilik ishlariga katta rag‘bat bildirgan. Ushbu jarayonlarning barchasi haqida maqolada atroflicha fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: temuriylar, bog‘lar, temuriylar bog‘lari, Kobul, Muhammad Mazid tarxon, Bobur, Boburnoma, Samarqand, Irshod al-ziroa

Abstract

This article discusses information about gardens in Samarkand, Kabul and India in the work "Baburnoma" by the Timurid ruler Zahiriddin Muhammad Babur, who built a separate state in India. We can say that the importance of the article has increased even more during the current climatic problems. Like other Timurid rulers, Zahiruddin Muhammad Babur also greatly encouraged horticulture and beautification works. All these processes are discussed in detail in the article.

Key words: Timurids, gardens, Timurid gardens, Kabul, Muhammad Mazid Tarkhan, Babur, Baburnama, Samarkand, Irshad al-Ziraa

Аннотация

В данной статье рассматриваются сведения о садах Самарканда, Кабула и Индии в произведении «Бабурнома» тимуридского правителя Захириддина Мухаммада Бабура, построившего в Индии отдельное государство. Можно сказать, что значимость статьи еще больше возросла в связи с нынешними климатическими проблемами. Как и другие правители Тимуридов, Захирудин Мухаммад Бабура также активно поощрял работы по садоводству и благоустройству. Все эти процессы подробно рассмотрены в статье.



Ключевые слова: Тимуриды, сады, Тимуридские сады, Кабул, Мухаммад Мазид Тархан, Бабур, Бабурнама, Самарканд, Иршад аз-Зираа.

Tarixiy manbalarda asosan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy voqealar yoritishga ahamiyat berilib, jamiyat hayotining muhim qismlaridan biri bog‘lar, ularning qurilishi, tuzilishi kabi masalalarga nisbatan kam ahamiyat berilganiga guvoh bo‘lamiz. Bog‘dorchilik mavzusini o‘rganar ekanmiz, bog‘dorchilik tarixi, bog‘lar tuzilishi kabi masalalarga bag‘ishlab yozilgan tarixiy asar deyarli mavjud emasligi ayon bo‘lmoqda. Shunday turdagi asarlardan biri Qosim ibn Yusufning “Irshod al ziroa” asari bo‘lib, mazkur asar ham aynan Amir Temur davri emas, balki Husayn Boyqaro davridagi qishloq xo‘jaligi, bog‘dorchilik kabi masalalarga bag‘ishlangan. Yana bir tudagi manbalar borki, ularda jamiyat hayotining deyarli barcha qismlari qamrab olinadi. Mazkur turdagi tarixiy asarlar biografik asarlar hisoblanadi. Biografik asarlarda kundalik o‘laroq, muallif boshidan o‘tkazgan voqealarni bayon etish asnosida tarixiy voqeliklar haqida qimmatli ma‘lumotlar ham berib boradi. Mana shunday biografik asarlardan biri bu shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan yozilgan “Boburnoma” asari hisoblanadi.

Boburnomada XV asr oxiri – XVI asr birinchi yarmi davriga oid muhim ma‘lumotlar berilgan. Asarning ahamiyatini oshiradigan yana bir jihati geografik nuqtai nazardan juda katta hududni qamrab olganidir. Hozirgi kun nazari bilan qaraganda “Boburnoma” asaridan O‘zbekiston, Tojikiston, Afg‘oniston, Pokiston va Hindiston tarixi, geografiyasi, tabiati, o‘simliklari va hayvonot dunyosi, aholining urf-odatlarini, kundalik mashg‘ulotlari haqida muhim hamda qimmatli ma‘lumotlar olishimiz mumkin. Shuningdek, asarda ilmiy tadqiqot mavzusi doirasida ham ma‘lumotlar bisyor. Asardan Samarqand, Kobul, Hirot va Hindistonda barpo etilgan bog‘lar haqida ma‘lumotlar berilgan. Mazkur maqolada asardagi bog‘lar masalalari tahlili bilan tanishish imkoniga ega bo‘lamiz.

Asarda Bobur Mirzo Amir Temur tomonidan amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlarini ham eslab o‘tadi. Jumladan, Samarqand va shahar atrofiga Amir Temur qurdirgan bir nechta bog‘lar sanab o‘tilgan bo‘lib, ular quyidagilar Samarqand sharqida ikki bog‘: yiroqrog‘i Bog‘i Bo‘ldu, yaqinrog‘i Bog‘i Dilkusho¹, Ko‘hak tepaligi etagida, Konigilning qora suvi ustida Naqshi Jahon², Samarqand janubida Bog‘i Chanor³, Samarqandning quyi qismida Bog‘i Shamol va Bog‘i Bihisht⁴ kabilar sanab o‘tilgan. Amir Temurning bunyodkorlik ishlari haqida gapirar ekan, Temurning o‘zi “Mening bir bog‘im borki, uzunligi o‘ttiz yig‘ochdir”⁵, degan so‘zlarini keltirib, amirning bunyodkorlik, obodonchilik va bog‘chilik ishlariga naqadar muhim ahamiyat berganini tasvirlagan.

¹ Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”. T.: 2019. 56-bet

² Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”. T.: 2019. 57-bet

³ Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”. T.: 2019. 57-bet

⁴ Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”. T.: 2019. 57-bet

⁵ Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”. T.: 2019. 60-bet



Boburnoma asari bilan tanishar ekanmiz, bog‘lar haqidagi ma‘lumotlar ikki xil o‘rinda kelganiga guvoh bo‘lamiz. Birinchisi, harbiy holatda qo‘shin yig‘ish, ittifoqchilar bilan uchrashish holatlari bo‘lsa, ikkinchisida esa alohida ma‘lumotlar keltirilgan holatlarda uchraydi. Bundan bilishimiz mumkinki, bog‘larning ahamiyati ma‘lum doira bilan cheklanmay, keng tarmoqli bo‘lgan ekan. Shuningdek, Bobur o‘z asarida nafaqat hukmdorlar qurgan bog‘lar, balki beklar, saroy amaldorlari ham barpo etgan bog‘lar haqida ham ma‘lumot berib o‘tadi. Ba‘zi beklarning bog‘larida oliy hukmdorning qabul o‘tkazishi, davlat tadbirlari o‘tkazilishi holatlari ayni bekning siyosiy mavqeidan ham darak berib turadi. Bunday holatlarda xaroba holiga kelib qolgan yoki qarovsiz qolgan bog‘lar mustasno bo‘ladi.

Asar bilan tanishar ekanmiz, bog‘lar faqatgina dam olish manzilgohi emas, balki ularning vazifasi kengroq ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Bog‘larning vazifalari ijtimoiy markaz⁶, hukmdor qabul o‘tkazadigan joy, rasmiy tadbirlar maskani, qo‘shin to‘planadigan joy⁷ va, hatto urush davri uchun qarorgoh⁸ vazifasini ham o‘taganiga guvoh bo‘lamiz. Bog‘larning mazkur ko‘plab vazifalari tufayli ham Zahiriddin Muhammad Bobur xuddi katta bobosi Amir Temur kabi bog‘lar qurilishiga alohida ahamiyat bergan. Bunyodkorlik ishlari nafaqat Kobulda, balki Hindda ham davom ettiriladi. Hindistonning bahavo, bog‘ barpo etish uchun qulay hududlarida ko‘rkam bog‘lar qurilishiga ahamiyat bergan. Boburning o‘zi ko‘rimsiz va betartib Hindda yaxshi tartibli binolar va bog‘lar barpo etilganini e‘tirof etgan⁹. XV asrda ham Amir Temur davridan buyon davom etib kelayotgan an‘analardan biri, ya‘ni hukmron oila ayollarining ham alohida shaxsiy bog‘lari mavjudligi masalasida ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan. Jumladan, aka-uka xonlar, Boburning tog‘alari Ahmad Tanbalni Andijon atrofiga qadar ta‘qib qilib kelib, Esondavlat begimning Qo‘shtegirmondagi bog‘ida qarorgoh qilishgani aytilgan¹⁰. Amir Temur o‘z davrida bog‘larni ayollari yoki qiz farzand hamda nabiralari sharafiga atab qurib, mazkur bog‘lar atalgan shaxsning shaxsiy mulki hisoblangani haqidagi ma‘lumotlardan kelib chiqqan holda, mazkur an‘ana aytilgan davrda ham davom etgan degan fikrni aytish mumkin.

“Boburnoma”da zikri kelgan dastlabki bog‘ Shohruhiya qal‘asi tashqarisida Haydarbek qurdirgan bog‘dir¹¹. Mazkur bog‘ga Bobur Mirzo xon tog‘asi Sulton Mahmudxonga mulozamat qilish uchun tashrif buyuradi. Bu vaqtda xon bog‘ o‘rtasidagi ulug‘ chordara¹² uйда o‘tirgan bo‘lgan. Ushbu ma‘lumotdan bilishimiz mumkinki, XV asr oxirida ham Movarounnahr bog‘chilik san‘atida ko‘shklar bog‘ markazida qurilgan. Shuningdek, bog‘lardagi qabul marosimlari bo‘yicha gapirganda, nafaqat tarix, balki etnografiyaga oid ma‘lumotlar ham berib o‘tilish hollari uchraydi.

⁶ Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”. T.: 2019. 43-bet

⁷ Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”. T.: 2019. 97-bet

⁸ Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”. T.: 2019. 76-bet

⁹ Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”. T.: 2019. 333-bet

¹⁰ Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”. T.: 2019. 117-bet

¹¹ Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”; T.: “O‘zbekiston” NMIU: 2019. 42-bet

¹² To‘rt eshikli uy



Bog‘lar siyosiy voqealar markazi sifatida ham tasvirlangan holatlarni ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, Boysunqur Mirzoning taxtdan tushirilishi voqeasida ham Bog‘i Navda eng muhim voqealar sodir bo‘lgani keltirib o‘tiladi¹³. Umuman olganda, asardagi ma‘lumotlar bilan tanishish asnosida o‘z davri hukmdorlari saroydan ko‘ra ko‘proq bog‘larda yashagan, degan tasavvur ham paydo bo‘ladi.

Samarqandda Mirzo Ulug‘bek qurdirgan Bog‘i Maydon ta‘rifini keltirganda, bog‘ markazida yuksak imorat qad ko‘targani va uni Chilsutun deb atashgani haqida ma‘lumot beradi¹⁴. Mazkur ma‘lumot ikki jihati bilan muhimdir. Birinchisi, imoratning bog‘ markazida qurilgani bo‘lsa, ikkinchisi esa imorat toshdan barpo etilganidir. Ushbu ma‘lumotlardan biz bog‘dagi ko‘shk qurilishi bo‘yicha Amir Temur davri an‘analari saqlanib, davom etayotganligi hamda qurilish xomashyosi sifatida toshdan foydalanilishini bilib olishimiz mumkin. Keyingi davrlarda, Husayn Boyqaro bog‘larida hamda Hindistondagi Boburiylar bog‘lari qurilishida ko‘shk yoki bog‘dagi imoratlarning joylashuv o‘rni siljigani kuzatiladi.

Sulton Ahmad Mirzo zamoni bog‘dorchilik uchun barakali davr bo‘lgani ham e‘tirof etilgan¹⁵. Bu davrda nafaqat hukmdor, balki bek va kichik beklar ham bog‘ barpo etishga mayl bildirishadi. Oqar suvi bo‘lmasa-da, Darvesh Muhammad Tarxon eng go‘zal va safoli chorbog‘ qurdirgan edi. Bog‘da qayrag‘och, sarv va oq teraklar ekilgani haqida ma‘lumot beriladi.

Shayboniyxon Samarqandga yurishi chog‘ida Sulton Ali Mirzoning onasi Zuhrobegi og‘a bilan ahdlashgach, Bog‘i Maydonga kelib tushadi. Zuhrobegi og‘a xon qabuliga Chorraha darvozasidan chiqib borgani qayd etilgan¹⁶.

Zahiriddin Muhammad Boburning Kobuldagi hukmdorlik yillarida ham bir qancha bog‘lar barpo etgani haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Mana shunday bog‘lardan dastlabkisi 1508-yilda Odinapur qo‘rg‘onining oldida, janub tarafidagi tepalikda barpo qilingan Bog‘i Vafo chorbog‘i edi¹⁷. Mazkur chorbog‘da yetishtirilgan mevalar haqida ham atroflicha ma‘lumotlar keltirilgan. Jumladan, norunj (apelsin), turunj (limon) va anor kabilar ko‘p bo‘lishi, keyla (banan) daraxtini keltirib ekkanda ko‘kargani hamda shakarqamish ham ekilib, undan Badaxshon va Buxoroga yuborilganini bilib olishimiz mumkin. Bog‘ o‘rtasidagi tepalik ustida chorchaman bo‘lgani, bog‘ning g‘arbi-janubiy tarafida o‘nga-o‘n hajmda hovuz qurilib, atrofida butunlay norunj va anor daraxtlari ekilgani hamda hovuz qirg‘oqlari butunlay sebargazor bilan qoplangani haqidagi ma‘lumotlar ham o‘ta qimmatli ma‘lumotlar hisoblanadi. Mazkur ma‘lumotlar tahlili hamda zamonaviy imkoniyatlardan foydalangan holda xuddi tasvirlanganidek xushhavo bog‘larni barpo etish uchun hozirda imkoniyatlar yetarli, nazarimda.

¹³ Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”. T.: 2019. 47-bet

¹⁴ Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”. T.: 2019. 58-bet

¹⁵ Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”. T.: 2019. 58-bet

¹⁶ Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”. T.: 2019. 89-bet

¹⁷ Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”. T.: 2019. 143-bet



Shu o'rinda aytib o'tish joizki, Boburnoma asarida ikkita Ulug'bek ismli hukmdorlar haqida ma'lumot keltiriladi. Birinchisi Amir Temurning nabirasi Ulug'bek Mirzo bo'lib, Samarqandda hukmronlik qilgan. Ikkinchisi esa Abu Said Mirzoning o'g'li Ulug'bek Mirzo bo'lib, Kobulda hukmdorlik qilgan. Berilgan ma'lumotlardan ularning har ikkalasi ham ma'rifatparvar hukmdor bo'lgan degan fikrga kelish mumkin. Bobur Mirzo Istalif kentida Ulug'bek Mirzoga tegishli bog' bo'lgani, ammo o'z davriga kelib bog' xususiylashib ketgani haqida ma'lumot bergan¹⁸. Mirzo bog'ni egalariga pul berib, sotib olgani hamda bog' markazidan oqib o'tuvchi anhor atrofini obodonlashtirgani haqida ma'lumot bergan. Shuningdek, ma'lumotlardan mazkur bog'da ulkan chinor daraxtlari o'sishi, shu tufayli bog' yam-yashil va safoli manzil ekanligi haqida bilib olamiz. Bog' nomi esa Bog'i Kalon deb atalgan.

Sulton Husayn vafot etganidan so'ng Hirotda qo'shhokimiyatchilik vujudga kelgani tarixiy fakt. Bobur Mirzo sulton vafoti munosabati bilan Hirotda tashrif buyurib, bu yerdagi bog'lar hamda marosimlar haqida ham qimmatli ma'lumotlar bergan. Ushbu ma'lumotlardan ikki hukmdor Badiuzzamon Mirzo hamda Muzaffar Mirzolarning har ikkisi qarorgoh sifatida bog'larni tanlashganini bilib olamiz¹⁹. Jumladan, Badiuzzamon Mirzo qarorgohi Bog'i Jahonoroda bo'lsa, Muzaffar Mirzoniki Bog'i safidda edi. Mazkur bog'lar haqidagi ma'lumotlarning yana bir muhim tomoni bog'larda joylashgan imoratlarning aynan nomlari ham mavjudligidir. Bog'i Safiddagi imorat Tarabxona, Bog'i Jahonorodagi imorat esa Muqavviyxonada deb atalganini bilib olamiz. Shuningdek, Bog'i Safid bog'ini Abulqosim Mirzo bino qilgani haqida ishorat ham mavjud.

Hindistondagi hukmdorlik davrlarida ham bog'lar barpo etishga alohida ahamiyat beriladi. Dastlabki taasurotlarida Hindiston shahar va viloyatlarini juda besafo deb atagan²⁰. Bog'lariga xos xususiyat sifatida atrofi devor bilan o'ralmasligini keltirib o'tgan. Hindistonda oqar suv mavjud bo'lmasada, Bobur Mirzoning say harakatlari bilan maxsus charxlar o'rnatilib, oqar suv yaratish imkoniyatlari ishga solinadi²¹. Betartib va ko'rimsiz Hindning bir chekkasida go'zal imoratlar va bog'lar barpo etilib, obodonlashtiriladi. Bunday tartibli hamda go'zal ko'rinishli binolarni hech qachon ko'rmagan hind xalqi obodonlashtirilgan hududga Kobul deya nom qo'yib olishgan²². Shuningdek, barpo etilgan bog'larni yaxshi tartibda saqlashni shaxsan Bobur Mirzoning o'zi nazorat qilgan²³. Bobur Mirzo bog' atroflarini ham obodonlashtirishga alohida e'tibor bilan qaragan. Jumladan, Do'lpurda qurilgan Nilufar bog'ining atroflarida imoratlar va bog'lar qurish uchun o'z bek va xos amaldorlariga yer va joylar bo'lib beradi²⁴.

¹⁸ Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma". T.: 2019. 148-bet

¹⁹ Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma". T.: 2019. 204-bet

²⁰ Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma". T.: 2019. 304-bet

²¹ Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma". T.: 2019. 332-bet

²² Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma". T.: 2019. 333-bet

²³ Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma". T.: 2019. 366-bet

²⁴ Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma". T.: 2019. 397-bet



Hindistonda bino qilingan bog‘larga Movarounnahrda xos nomlar berilganini ham uchramiz. Jumladan, Jalesar qishlog‘i yaqinida, Juundan kechib o‘tganda joylashgan bog‘ “Zarafshon” deb atalgan²⁵.

Xulosa o‘rinda aytish mumkinki, Zahiriddin Muhammad Bobur umri urushlar, taxt talashishlar va yangi hududlarni zabt etishda o‘tganiga qaramay, o‘zi hukmronlik qiladigan hududlarda obodonchilik ishlariga ahamiyat bergan. Hindistonda hukmronlikni qo‘lga kiritgandan keyin ham Kobulda qolgan farzandlariga bog‘larni obod saqlash haqida ko‘rsatma berib turgan. Zahiriddin Muhammad Bobur Hindiston hududlariga tartibli qurilishlar hamda Amir Temur va temuriylar davri bog‘dorchilik an‘analarini olib kira oldi deya ayta olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”. Toshkent: 2019
2. E.B. Moyninah The lotus garden palace of Zahir al-Din Muhammad Babur. Massachusets. 1988 Muqarnas 5. P.p.: 135-152
3. E. Koch Mughal palace gardens from Babur to Shah Jahan (1526-1648) Massachusets. 1997 Muqarnas 14. P.p.: 143-165

²⁵ Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”. T.: 2019. 398-bet